

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti

O‘zbekiston Yuzuvchilar uyushmasi

Turkiya davlati Karabuk universiteti

Ozarbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy
nomidagi Adabiyot instituti

Al-Forobiy nomidagi Qozoq Milliy universiteti

**«TURKIY XALQLAR
ADABIYOTSHUNOSLIGI
VA MATSHUNOSLIGINING
DOLZARB MASALALARI»**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferans
materiallari**

2026-yil 15-yanvar
Toshkent – 2026

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrir:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori, akademik

Taqrizchilar:

Kemal Yavuz Ataman

ijtimoiy fanlar doktori, Turkiya

Dilnavoz Yusupova

filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Almaz Ulviy Binnatova (Ozarbayjon), Jabbor Eshonqulov (O'zbekiston), Islam Jemeney (Qozog'iston), Funda Toprak (Turkiya), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Olim Davlatov (O'zbekiston), Qanishbay Orazimbetov (Qoraqalpog'iston), Nafas Shodmonov (O'zbekiston), Bahodir Karimov (O'zbekiston), Uzoq Jo'raqulov (O'zbekiston), Maqsud Asadov (O'zbekiston), Zeboxon Qobilova (O'zbekiston), Dilshod G'ayipov (O'zbekiston), Darmonoy O'rayeva (O'zbekiston), Dilrabo Quvvatova (O'zbekiston), Qo'ldosh Pardayev (O'zbekiston), Shermuhammad Amonov (O'zbekiston), Gulrux Xudoyorova (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi ilmiy maktabining asoschisi, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov tavalludining 60 yilligi munosabati bilan o'tkazilayotgan "Turkiy xalqlar adabiyotshunosligi va matshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-nazariy konferans materiallari jamlangan. To'plamda olim ilmiy-ijodiy faoliyatining o'zbek va qardosh xalqlar adabiyotshunosligida tutgan o'rni va ahamiyatiga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Shuningdek, turkiy xalqlar mumtoz adabiyoti tahlili, adabiy manbashunoslik va matshunoslikning nazariy va amaliy masalalari, navoiyshunoslik muammolari, istiqboli, zamonaviy adabiyotni o'rganish masalalarini yoritishga bag'ishlangan maqolalar ham kiritilgan.

Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavriat talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tabririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

“AL-ISLOH” JURNALIDA ISLOM MA’RIFATI MASALASI

Pardayev Qo‘ldosh Uzaqovich,
filolgiya fanlari doktori, professor,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
 davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
e-mail: kuldashparda@mail.ru

Annotatsiya

“Al-Isloh” jurnalining adabiy, ijtimoiy, diniy manba sifatidagi ahamiyati dalillangan va unda nashr qilingan jamiyat islohiga oid adabiy, ijtimoiy, diniy hamda publitsistik asarlar ilmiy tablili amalga oshirilgan, jurnalning milliy uyg‘onish davri matbuotida tarixida tutgan o‘rni ko‘rsatilgan. Jurnalning XX asr boshi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayoti va adabiy-diniy muhiti bilan chambarchas bog‘liqligi, maqolalar mohiyati tadqiq qilinib, umumlashma ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: *janr, maqola, she‘r, babs, munozara, millat, milliy uyg‘onish, jadidchilik, ma‘rifat, jabolat, tablil, matbuot.*

Abstract

The significance of the journal “Al-Isloh” as a literary, social, and religious source has been substantiated, and a scholarly analysis has been conducted of the literary-social, religious, and journalistic works related to social reform published in it. The journal’s place in the history of the national awakening period press has been determined. Its close connection with the socio-political life of early twentieth-century Turkestan and the literary-religious environment of the time has been examined, the essence of the articles has been analyzed, and generalized scholarly and theoretical conclusions have been drawn.

Keywords: *genre, article, poem, argument, dispute, nation, national renaissance, jaddism, enlightenment, fanaticism, analysis, press.*

XX asr birinchi choragi Turkiston ijtimoiy hayotida jadidchilik harakati o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan. Unga muayyan ma’noda muxolif sanalgan “qadimchilik” ham ijtimoiy zaminiga, faol harakatda bo‘lgan kuchlariga ega edi. Jadidchilik harakatining g‘oya va fikrlari XX asr 10-yillaridan so‘ng “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona”, “Buxoroi sharif”, “Turon”, “Samarqand”, “Hurriyat” kabi gazetalarda, “Oyna” jurnalida aks etgan bo‘lsa, qadimchilarning qarashlari ma’lum darajada “Al-Isloh”, “Al-Izoh” jurnallarida o‘z ifodasini topgan, tarzidagi qarashlar mavjud. “Al-Isloh”ga oid bu fikrning haqiqatga qanchalik muvofiqligi haqida uning barcha sonlarini tadqiq etish asosida xulosa chiqarish ilmiy va mantiqiy jihatdan to‘g‘ri ekani shubhasizdir. Ayni zamonda, mazkur manbani sinchiklab o‘rganish jadidlar bilan qadimchilar munosabatining mohiyati nimadan iborat bo‘lganini aniqlashga ham muayyan darajada ko‘maklashadi.

“Al-Isloh” sahifalarida yangi ijtimoiy voqelik sharoitida adabiy-diniy va ijtimoiy-siyosiy materiallar tahlil va talqin etildi, zarur o‘rinlarda ularga isloh kiritish yuzasidan takliflar bildirildi. Natijada, mazkur nashrning adabiy-ma’rifiy qarashlar rivojida ham muayyan ahamiyatga molik bo‘lgani shubhasizdir. Bu jarayonni kuzatish ma’naviy – ruhiy tafakkurimizning tadrijini aniqlashga ko‘maklashadi.

“Al-Isloh” o‘z nomi bilan millat hayotining barcha jabhalarini isloh qilish masalasiga alohida e’tibor qaratdi. Zero, bu davrdagi boshqa matbuot nashrlari singari “Al-Isloh” ham “Turkistonning ijtimoiy-ma’naviy hayotidagi yangilanishning o‘ziga xos bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ldi va millatning uyg‘onishida muhim rol o‘ynadi” bu rol dinga oid qotib qolgan qarashlarni isloh etish va diniy masalalarni aks ettirishda ham yaqqol namoyon bo‘ldi.

Jurnalda e’lon qilingan diniy mavzuga bag‘ishlangan maqolalarning aksar qismi fihiy masalalarga bag‘ishlangan. Unda asosan o‘sha davrning ilg‘or ulamolari o‘z fikr – mulohozalari bilan faol qatnashgan. Jurnalda savol-javob rukini tashkil etilgan bo‘lib, har-bir viloyatdan kelgan savol – maqolalar jurnal sahifalarida muntazam chop etilgan. Ayrim masalalar qizg‘in bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan.



“Al-Isloh” va “Oyna” jurnallari mualliflarining o‘zaro bahs-munozaralari o‘sha davrning dolzarb muammolarini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Behbudiy bilan ulamolar o‘rtasidagi munozaralar keskin bo‘lgan. Behbudiy halq ma‘rifatiga katta ahamiyat bergan va bu yo‘ldagi har qanday to‘siqni olib tashlashga uringan. Ma‘rifatparvarning “Oyna” jurnali 1915-yil 10-sonida nashr etilgan “Tahsil va safar zamoni va taom” maqolasi, ayniqsa, keskin bahslarga sabab bo‘ldi. U bunday yozadi: “Hazrat Ali afandimiz (karramallohu vajhahu) janoblari buyuradilarki ...Ey musulmonlar, bolalaringizga kelar zamon ilmni o‘rgatingiz! Zeroki, alarni Xudo taolo xalq etdi sizni zamoningizdin boshqa, ya’ni kelar zamon uchun. Yuqoridagi so‘z shunday bir qimmatbaho va purma’no va keraklik so‘z durki, yolg‘uz aning ila biz musulmonlar omil bo‘lsa eduk, butun dunyoyu oxiratimiz obod bo‘lur edi” [Behbudiy, 1915: 245]. Behbudiy ilm olish fazilatlarini Qur‘on oyatlari va hadislarga asoslanib ta‘riflaydi. Mashhur hadisga tayanib, ilm Xitoyda bo‘lsa ham, borib o‘zlashtirish zarurligini ta‘kidlaydi. Behbudiy bu hadisni bejiz keltirmaydi. Zero, Xitoydan islom ma‘rifatini o‘rganib bo‘lmasligi ayon edi. Bunda millatni taraqqiyotga eltuvchi dunyoviy ilmlarni o‘rganishga ishora qilingan. Maqolada muallifning “Ollah aql bersun! Hazrat payg‘ambarimiz kotibi vahiy bo‘lgan hazrat Zaydni yahudiyg‘a borib o‘qimoqg‘a buyurdilar. Va ham ul kishi borib o‘qidi”, degan fikrlari ham buni tasdiqlaydi. Behbudiy tahsilning zamona talabi ekanligiga bir qancha misollar keltiradi va yoshlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bunday murojaat qiladi: “Bizni Turkistonning mahalliy hukumat mahkamalarinda, kasalxona va doruxonalarda, temir yo‘llar idorasinda va barcha banklar, tijorat ko‘ntur va korxonalarinda, siz muhtaram yoshlar, diqqat etib qarasangiz, asl rusiylardin naqadar o‘zga jinsiy kishilarni ko‘rasizki, katta oyliklar ila xizmat etarlar. Masalan, siz yoshlardin biri dallollik va yo tarjimonlik va yo molfurushlik xizmatida oyinda bir necha yuz so‘mlab vazifa olur... Buning hikmati nadur? Albatta, hikmati aning otasi o‘z bolasini zamonag‘a muvofiq tarbiya va ta‘lim etganidir”.

Behbudiy zamonaviy ilm-fandan bahramand bo‘lishning afzalligini ham din va zamon talabi nuqtai nazaridan talqin etadi.

Shunday ekan, zamona ilmni o‘zlashtirishni nimadan boshlamoq va nimalarga rioya etmoq kerak? Behbudiy bu haqda ham batafsil to‘xtaladi: “Shahar maktabi, ya’ni “gorodskoy uchilish”g‘a kirmoq uchun bola ruscha o‘qub yozmog‘i va ozgina hisob bilmog‘i kerakki, munga bir bolani 8-10 oy rus qo‘lig‘a berib tarbiya qildirulsa, bu imtihonni berib kirar” [*Nisbonova, 2005: 72*].

Maqolada Behbudiy Peterburg va Rossiyaning boshqa shaharlarida tahsil ko‘rgan talabalar, ularga ro‘para kelgan qiyinchiliklar haqida fikr bildiradi. Unda ko‘tarilgan asosiy muammolardan biri taom masalasidir. Binobarin, o‘sha paytlari rasmiy din ulamolarining aksariyati g‘ayrimusulmonlar tomonidan so‘yilgan go‘shning musulmon ahli tomonidan iste‘mol qilinishini nojoiz hisoblagan. Behbudiy esa o‘z dindoshlarini Rossiya davlati bergan o‘qish imkoniyatidan to‘liq foydalanishga da‘vat etadi. Biroq bu talabalar uchun ma‘qul taom bo‘lmagan muhitida ular qanday yashashlari mumkin?

Behbudiy bir hadisni eslatib, uni bunday talqin etadi: “Payg‘ambardan uning sahobalari: “G‘ayridin qo‘shnilar (mushrik) so‘ygan go‘shni musulmon ahli iste‘mol qilishi joizmi?” – deb so‘rganlarida, u hazrat mumsulmonlarga bu taomni yeyishdan oldin “bismillohir rahmonir rahim” deb iste‘mol qilishga da‘vat etgan. Behbudiyning talqinicha, iste‘mol qilish joiz bo‘lmagan taomdan musulmon ahli ana shu “basmala” vositasida foydalanishi mumkin.

Behbudiy fikrlariga tanqidiy munosabat bildirilgan maqolalar o‘zi muharrirlik qilayotgan “Oyna” jurnali va “Al-Isloh”da ketma-ket bosildi. Jumladan, “Al-Isloh”ning 1915 yil 9-sonida Sadriddinxon maxzum tomonidan “Kutilmagan talqin” nomli tanqidiy maqola chop etilgan. Maqolada muallif Behbudiy fikrlarini tanqid qilib, musulmon talabalarni 8-10 yoshida rus oilasiga berib, ularning taomidan istemol qilishini shariatda nojoiz bilib, bunday yozadi: “Adabiy, iqtisodiy, diniy bo‘lmish “Oyna” majallasining 10-sonidagi mundarijalarin mutolaa qilib turganimda “Tahsil va safari zamon



va taom” sarlavhali maqolaga ko‘zim tushdi. Unda darj qilingan satrlarda demishki: bolani 8-10 oy rus oilasiga berib ta’lim qilinsa, shahar maktabig‘a kirmoq imtihonini berur emish. Albatta, yoding‘izg‘a kelurki, ruslarni taomidan bolani yemog‘i qandoq edi? ” Sadridinxon fikrlariga hamohang Muhammadrasul Rasuliy tomonidan “Al-Isloh”ning 1915-yil 10-sonida “Kutilmagan talqin”ning baqiyasi” nomli maqola e’lon qilindi. Unda muallif keskin fikr bildiradi. Uningcha, Behbudiy o’sha hadisni noto’g’ri talqin qilgan va noxolis mulohaza yuritgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, birgina “Al-Isloh”da emas “Oyna” jurnalida ham shunday tanqidiy fikrlar bildirilgan. Masalan, jurnalning 1915-yil 15-sonida Ahmadxo’ja eshon “Daf’i ta’riz va shubha ajnabiy taom haqinda” sarlavhali maqola e’lon qilgan. Maqola bunday e’tiroz bilan boshlanadi: “Oyna jurnalining muharriri va noshiri samarqandlik Mahmudxo’ja – butun Turkistonda islom olamini ilm nuri ila ziyolanturmak da’vosinda bo’lmish ko’zi juda katta ochiq kishi ijthod qilib, mushrikning so’ygani halol deb fatvo berdi – qo’ydi. Xiyla chaqqon ekan, hadis ma’nosini ham ko’p mohiri ekan. Bu musulmonliqmi?” [Ahmadho’ja eshon, 1915: 320].

Ahmadxo’ja Eshon “Oyna” jurnali bilan kifoyalanmadi, bu singari fikrlarini “Al-Isloh”da ham davom ettirdi. Jumladan, “Al-Isloh”ning 1915-yil 12-sonida “Daf’i ta’rizg‘a e’tiroz” nomli maqolasida masalaga bunday munosabat bildiradi: “...mufti janoblari “mushrik zabihasi halol” debdurlar. Biz ayturmizki – haromdir, xato qilibdurlar. Mufti ayturlarki: “Halollig‘ina ushbu men zikr qildigim hadis dalolat qilur”. Biz ayturmizki, dalolat qilmas, hadis ma’nosini yaxshi fikr qilsunlar va bilsunlar va bilg‘on kishidin so’rasunlar...” Jadidchilik bo’yicha e’tirof etilgan mutaxassislardan Ingeborg Baldauf bu bahslar xususida quyidagi mulohazalarni bildiradi: “Behbudiy o’z millatining taraqqiyotini ko’zlab, boshqa e’tiqoddagi millatlarning an’analariga moslashish, ya’ni boshqa e’tiqod vakillari so’yan go’shtni iste’mol qilish masalasida anchagina erkinlik beruvchi yo’lni tanladi. Bu bilan u “ijthod” sari qadam qo’yan edi. Ana shu qarashlari uchun ham u diniy an’anaga sodiq kishilar tomonidan tanqid ostiga olingan. 1915-yil sharoitida “ijthod”ga chaqirish huquqini talab qilganlikda ayblanish O’rta Osiyo musulmonlari muhitida xavfli bir hol sanalgan: hattoki eng sodiq jadidlar ham bu ishdan o’zlarini tiyib turganlar, chunki ommaviy tarzda ijthodga da’vat qilish Abu Hanifa shar’iy qonunchilik maktabi ta’limotini inkor etish bilan tenglashtirilishi mumkin edi” [Baldauf, 2001:13]. Shariatning taom masalasiga munosabat Xolmuhammad To’raquli maqolalarida ham yoritilgan. “Al-Isloh”ning 1916-yil 4-sonida “Markidin muhtaram Mulla Xolmuhammad To’raquli tarafidin savol” nomli maqola chop etilgan bo’lib, unda bir qo’yning (odatdagi qo’ylarga nisbatan boshqacharoq) halol yo tekshirilganda, qo’yning barcha alomatleri cho’chqani eslatishini, uning cho’chqadan tarqatilganini alohida ta’kidlaydi. Hatto “Oq suv” degan mahallaning imomi harom deb fatvo bergani va bu qo’yni so’yan qassobdan go’sht olmasligi haqida fikr yuritilgan. Bu masala ham Marki ulamolari o’rtasida bahs-munozaralarga sabab bo’lgani uchun “Al-Isloh” jurnaliga havola etilib, Turkiston ulamolari tomonidan oydinlik kiritilishi so’ralgan. Savol quyidagi tarzda qo’yilgan: “Vatandoshimiz o’lan Rusiya jamoalari orasida bir toifa qo’y bor: quyrug‘i uzun, o’z oramizda musta’mal qo’ylara o’xshamayur, muni ushbu qo’ylarni halol va harom degan masala odamlar orasida shoe’ bo’lub, hatto Oq suv degan mavzening imomi Mulla Shoh Abdurasul harom deb hukm qilub, Oq suvda so’yurmas ekanlar, har kim uyida shul qo’ydin so’ysa, ul odamning taomidan yemasga, agar qassob so’ysa, ul qassobni ayblik qilub, go’shtini olmasga fatvo qilubdurlar. ...ulamoi kiromlar ushbu masalaning javob va savobini tasrih (ochiq oydin) qilib “Isloh” vositasi ila nashr etsalar, hamma musulmonlar shak va sharif fatvosi ila amal qilsalar, dini mutaayyin uchun bir ulug‘ xizmat qilg‘on bo’lur edilar” [To’raquli, 1916: 98].

Bu savolga ko’p o’tmay jurnalning 1916 yil 7-sonida Hamza Muhammad Amin al-Hamidiy tomonidan “Al-javob” nomli maqola chop etilgan. Unda Xolmuhammad To’raquli maqolasini sinchiklab tadqiq etib, “Ma’ruf hadis kitoblar” asosida ya’ni, mu’tabar “Durr ul-muxtor” kitobining sahifasidan dalil keltiradi. Uning keltirgan dalilida qo’yning onasi e’tiborga olinib, otasig‘a aloqasi yo’qligi ta’kidlanadi. Shu jihatdan ham ushbu qo’yning shariatda halol ekanligini e’tirof etadi. U



bunday yozadi: “Mazkur qo‘ylar haloldur, chunki e‘tibor qo‘yning onasinadur, otasina e‘tibor yo‘qdur... ul qo‘yning cho‘chqaga mushobihatinda e‘tibor yo‘qdur.... Fuqahoi a‘zam hayvonning halol va harom o‘lmoqlig‘inda faqat onag‘a e‘tibor etmishlar, otasina e‘tibor etmamishlar” [Behbudiy, 1914: 195].

“Al-Isloh” sahifalarida kechgan bahs-munozaralardan yana biri kiyimlar masalasi edi. Ulamolar musulmon bolalarining yevropacha kiyinishini tanqid qildi. Shu bois maktab domlari va otanalarga murojaat qilib, yoshlarning kiyinish masalasiga jiddiy e‘tibor berish zarurligini uqtirdi. Bu masala ham “Al-Isloh” va “Oyna” jurnallarida keng muhokama qilindi. Jumladan, “Al-Isloh”ning 1915-yil 15-sonida idora nomidan “Qiyofat va kiyimlar masalasi” deb nomlangan maqola chop etilgan bo‘lib, unda o‘zbek milliy kiyimlarining yevropa kiyimlari ta‘sirida yo‘qolib borishi tanqid qilindi va Turkiston ulamolariga quyidagicha savol bilan murojaat etildi: “Mana bu kunda e‘tibor ko‘zi ila qarasak, kiyim masalasini ko‘rib hayron bo‘lurmiz. Avvallari har millat o‘zining umumiy kiyimidan boshqasini qabul etmagani holda yurur edi. Bu kunda esa bir millat u yoqda tursin, bir odam yuz xil qiyofatlarga molikdur. Kiyim va qiyofat masalasi atrofiga tekshirilib, maktablarimizda o‘qutilmas, dinimiz, islomiyatimizning kiyim va qiyofat taraddudlari to‘g‘risida ko‘rsatgan usul va qoidalari o‘rgatulmas?”

O‘z davrining zukko ulamolari qatorida diniy va dunyoviy ilmlarni mukammal egallagan buxorolik Abdurahmon Muftizoda jurnalning shu yilgi 17-sonida “Kiyim va qiyofat masalasiga javob” nomli maqola chop ettirdi. Muallif Misr muftisi Muhammad Abduhning bu masalaga oid fatvosi va diniy manbalarga tayanib, Muhammad payg‘ambarning rumliklar jandasini va tailand kiyimlarini kiyganliklarini misol keltirib, bu yo‘lda Payg‘ambarga ergashish kerakligini ta‘kidlaydi. “Oyna” tahririyati ham bu masalaga befarq qaragan emas. Kiyim masalasidagi bahslarda faol ishtirok etgan Mahmudxo‘ja Behbudiy “Oyna”ning 1914-yil 34-sonida “Kiyim va tashabbuh masalasi” nomli maqolasini chop ettirgan. Behbudiy musulmon kishisining diyonatini tashqi ko‘rinish bilan emas, balki uning e‘tiqodi bilan bog‘laydi va bunday yozadi: “Bir necha yildan beri ba‘zi majlislarda ruscha furma kiyim va tashabbuhlar masalasi xususida uzun-uzun mubohasalar bo‘lib, bu mubohasalar munozara ila tamom bo‘lur. Ikfor (kofir) hukmlarini aksar vaqt muhtaram ulamomiz og‘izlaridan eshitarmiz. Furma kiygan nari tursun, hatto uyining tagini “pol” va ustini tunuka qilganlarni yoki uyi ichiga ustol, ustul va surat kabi narsa qo‘yganlarni ikfor qilinur... Chunosonchi, biz bu kun o‘g‘limizni shahar maktabi va gimnaziyaga qo‘ymoqchi bo‘lsak, yoki bir necha yildan so‘ng Turkiston musulmonlaridan askar olinsa, ul holda albatta ruscha furma – shapka kiyimoq majburiy bo‘lur. Hozirda bu ikki holning avvalgisini ko‘rib ham majburiy suratda qabul qilib turibmiz. Zamoni kelganda ikkisini ham qabul qilsak kerak” [Behbudiy, 1914: 95]. Agar yevropalik bilan tashqi o‘xshashlikka ega bo‘lgani uchun kofir deb hisoblansa, unda yer yuzida bironta musulmon qolmasligi kerak, degan keskin fikrlarni bildiradi muallif. Behbudiy fikricha, zamonlar o‘tsa ham, ayrim urf-odat va an‘analar o‘zgarmaydi, shu bois yomon urf-odatlar (bid‘ati sayyia)ni yo‘qotib, yaxshilari (bid‘ati hasana)ni takomillashtirish kerak. Behbudiy o‘z mulohozalarida musulmon olamida hurmat qozongan din arboblarning fikrlariga tayanadi. Misr muftisi Muhammad Abduhning musulmonlar orasida obro‘si juda katta bo‘lgan. Shu bois uning fatvolariga tez-tez murojaat qilib turgan. Muhammad Abduh, Behbudiy xotirlashicha, fatvolaridan birida aytgan ekanki, shlyapa, shapka yoki boshqa yevropacha liboslar kiyish shariatga umuman zid emas, kimki buni rad etsa, demak, islom va sunna tarixini bilmaydi. Behbudiy ham yevropacha kiyimlar kiyilishini shariatda joiz deb e‘tirof etadi.

Behbudiy ikfor, ya‘ni kofirlik aybnomasining noo‘rinligini ta‘kidlasa-da, ulamolar nazdidagi “ikfor”ning asl kelib chiqishini mustamlakachilik siyosatining majburiyatlaridan biri sifatida talqin etadi.

Ta‘kidlash joizki, kiyim masalasiga doir bahs-munozaralarda tatar ulamolari ham ishtirok etgan. Shu bois “Din va maishat” jurnali 27-sonida bosilgan Sodiq Usmon ismli muallifning bu masalaga oid maqolasi Ahmadxo‘ja Eshon tomonidan “Al-Isloh”ning” 1915-yil 20-sonida nashr



etilgan. Maqolada Sodiq Usmon dini islomda e'tibor qozongan tatar ma'rifatparvari Rizouddin ibn Faxriddin so'zlariga tayangan holda fikr yuritgan. Kiyimlar uzoq tarix davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgani ta'kidlanib, yevropa kiyimlarini musulmon kishilarining kiyishi shariatda joiz deb e'tirof etilgan. Shu nuqtai nazardan ham Ahmadxo'ja Eshon ushbu maqolani Turkiston ulamolari e'tiboriga havola qilib, chop ettirgan. "... Libos va kiyum xususidagi javobga (raddiyan)" "Din va maishat"dagi Sodiq Usmonning javobini yozmak munosib ko'rildi" deb nomlangan edi maqola. Shuningdek, maqolada yana bunday deyilgan: ...Rizouddin qozi libos va kiyum haqida aytadurki, libos va kiyumlar haqida musulmon kiyumi va musulmoncha kiyum bo'ladurg'on bo'lsa, aning tarixi Rasululloh hazratlari va xalifalari va ham sahobalardin boshlanuvi va shul tartibning otadan bolag'a meros qolib keluvi hech bir zamonda boshqa bo'lmay tutashib kelmaki lozimdur. Agarda shul ruscha kiyum libos tartiblari maydonda bo'lsa, ango musulmon libosi musulmoncha libos, demak durust bo'lur. Lekin o'rtada shul ruscha bormu, islom dini musulmonlar uchun maxsus tartiblarda kiyum kiyimakg'a taklif etmadi.." [Ahmadxo'ja, 1915: 623].

Ko'rinib turibdiki, Ahmadxo'ja Eshon mulohazalari ham Abdurahmon Muftizoda va Mahmudxo'ja Behbudiy fikrlariga mutanosib. Shunday javoblardan keyin jurnalda kiyimlar masalasidagi bahs-munozara intiho topgan. "Al-Isloh"da kechgan bahslardan yana biri xotin-qizlar masalasiga bag'ishlangan. Bu masalada ham ulamolar va ziyolilar o'rtasida keskin munozaralar kechgan. Ulamolar "Qur'on"dagi "Niso"(Ayol) surasining tafsiri bo'yicha xotin-qizlarni hijobda (parda) saqlash kerak, degan fikrda mustahkam turdi. Davrning ilg'or ma'rifatparvarlari ulamolar fikriga zid xotin-qizlarni ochiqlik, ya'ni ma'rifatli bo'lishga, erkaklar qatori ilm-fanni egallab barkamol avlodni tarbiyalashga chorladi. Jumladan, "Al-Isloh"ning 1915-yil 24-sonida Idora nomidan "Abdulvahob Murodiydin "Sho'ro"ning o'n ikkinchi no'miri 659-sahifasina bir nazar" sarlavhali maqola chop etilgan. Unda Murodiyning "Sho'ro" jurnalida bosilgan xotin-qizlar masalasiga doir tanqidiy maqolasi haqida gap boradi. Murodiy Turkiston xotin-qizlarining ma'rifatsizligi, ularning ma'rifatli bo'lishi uchun sharoit yo'qligi, ya'ni, ulamolar to'sqinlik qilayotganidan shikoyat qiladi. Murodiy xotin-qizlarning ziyoli bo'lishi va farzand tarbiyasida ilmning nechog'lik zarur ekanligini e'tirof etadi. Maqolada quyidagilarni o'qiymiz: "Bizim Turkistonda taraqqiy asarlari ko'rila boshlag'ong'a bir oz vaqtlar bo'ldi. Zamon ta'siri ila bizda taraqqiy etgan narsa faqat erlar uchun ibtidoiy maktablar yaratildi... Ammo millatning onasi bo'lg'on qizlar maktabina kelsak, eski tartibda maktab uchramaz. ...millatning taraqqiysi uchun eng va avval qizlar maktablarini ko'paytuv burch edi. Lekin bizda ul hollarning asari ham yo'q. O'n million Turkiston aholisi ichinda birgina bo'lsun qizlarga xos tarbiyatli bir ibtidoiy maktab.."

Bu maqola Turkiston ulomalarining g'azabini qo'zg'atdi. "Al-Isloh"ning bir necha sonlarida Abdulvahob Murodiy haqida tanqidiy maqolalar bosilgani ham buni tasdiqlaydi. Masalan, buxorolik Muftizoda "Murodiyning zorlanishina javob" (1915, 24-son), Eshonxon "O'rinsiz iftiro va hayosizlik natijasi – jaholat samarasi" (1916, 3-son) kabi tanqidiy maqolalar bilan chiqdi. Bunday qarash Saidahmad Vasliy asarlariga ham xosdir. Uning "Al-Isloh" 1915 yil 18-sonida bosilgan "Tasattiri nisvon haqida" she'ri ayni shu masalaga qaratilgan. She'rda musulmon ayoli qanday bo'lishi kerakligi masalasi ko'tarilgan. Xotin-qizlarning hijob tutishi yangilik bo'lmay, bir qancha zamonlardan buyon davom etib kelayotganini ta'kidlagan shoir bunday yozadi:



*Xotunu qizlar uchundur cho'q go'zal davlat hijob,
Oru nomusing yuzig'a pardai ismat hijob,
Dafi oshubi zinog'a husni amniyyat hijob,
Qat'i sho'ru fitna etmakda bilo hojat hijob.
Tangri ko'ndurgan nisolar haqqig'a rahmat hijob,
Muslimot hazratlarig'a mislsiz ne'mat hijob,
Hatto muallif she'rning keyingi misralarida:*

*Qaysi xotunkim, ochiq yuzdur, bale fohishadur,
Pardalik qadrin bilur bar kimki xush idrokdur,
Pardasiz elning yurogi gul kabi yuz chokdur,
Qizu xotuning o'lurlar pardasizlik birla g'ar,
Ey diyonatsiz, tusbunkim, hosili oyat hijob.
Ya'ni bilkim, ma'niyi Qur'onu sunnat hijob,*

Bu masalada xotin-qizlar ozodligi haqida gapirishni xush ko'radigan liberal matbuot sukut saqladi. Vasliy "Qur'on"dagi "Niso" surasi tafsiriga tayanib mulohaza bildirdi. Unga munosib javob berishga hech kim jur'at qilolmadi. Lekin ko'p o'tmay, bir she'r paydo bo'ldi va qisqa muddatda Toshkentning butun to'rt dahasiga yoyildi. Unda shunday satrlar bor edi:

*Yetar, baskim, biza behad balo sangi nasib o'ldi,
"Zaifu notavon"lar deb, biza qullik nasib o'ldi,
Ki ul zulmatni timsoli chodir-chimmat nasib o'ldi,
Asrlar eltgon ul bid'at uyqusidan uyg'oning!..*

*Yetar bo'htonu haqorat biz "zaifu notavon"larga,
Javobi loyiqi bersak, aningdek bedavolarga,
Ildin, bas, qanot aylab, qilib parvoz havolarga,
Asrlar eltgon ul g'aflat uyqusidin uyg'oning!*

O'shanday mudhish zamonda "zaifu notavon"lar huquqini bu qadar dadil himoya qilib chiqqan, uni tahqir etuvchilarga keskin javob bergan ushbu she'r muallifi beshyog'ochlik Nozimaxonim edi [Qosimov, 2002: 211]. Nozimaxonim o'zbek mumtoz shoirlari maktabining kenja vakillaridan. U Turkiston erk va huquqini tanib, g'aflatdan uyg'ona boshlagan bir davrda yashab ijod etdi. Ushbu jarayonga o'z ulushini qo'sha oldi. 10-yillardayoq she'r va maqolalari bilan mustaqillik, xotin-qizlar ozodligi masalalarini ko'tarib chiqdi. U yana bir she'rida bunday yozadi:

*Ochib yuz ma'rifat sori, eting barbod xurofotni,
Biling, ul ufalik dugonalar yengmush jaholatni.
Olib erkin nafas, onlar qilib dafi zalolatni,*

[Jalolov, 1980: 218]. deb boshlanadi. Nozimaxonimning "ufalik dugonalar yengmush jaholatni" degan fikrida ham jon bor.

Ta'kidlash joizki, o'sha davrda tatar ulamolari ham xotin-qizlar masalasida bahs-munozaralar olib borgan. Hatto, "Vaqt" gazetasida ayollarning hijobda yurishi nojoizligi haqida maqola ham e'lon qilingan edi. Bu maqola tatar ulamolarining g'azabini uyg'otdi va tezlikda buning oldini olish maqsadida "Din va Maishat" jurnalida ushbu masalaga Qur'on va hadislar asosida javob berildi. Bu shov-shuv xabar Turkiston ulamolariga ham yetgan edi. Jumladan, "Al-Isloh"ning 1915 yil 11-sonida Mulla Iskandarshoh Akbar o'g'li tomonidan quyidagicha savol berilgan: "Vaqt" gazetasida shu yili bir fatvoni o'quduk: Ufa ulamolari xotun- qizlarni masjidg'a yuruvlari, yuz-qo'llarini ochub, erkaklar ila so'zlashub yuruvlari durust, islom dini bul ishlarg'a mone' bo'lmaydi, deb fatvo bermishlar. Tatarlarni xotin-qizlarni ochib yuruvlari durust deb bermish fatvolari durustmu?"

Bu savollarga Ahmadxo'ja eshon zudlik bilan jurnalning o'sha sonidayoq maqola nashr ettirdi. O'z fikrlariga dalil sifatida "Sahihi Buxoriy"dan Bibi Oysha onamizdan rivoyat qilingan hadisni keltirdi. Bu hadisda Oysha onamiz uxlab yotganlarida nomahram bir begona erkak kelib, yuzini ko'rib uyg'otganligi va bundan keyin u hijob tutushni buyurganligi zikr etilgan.

Masalaga xuddi shunday yondashuv Shamsiddin Xoib asarlarida ham aks etgan. U ham ayollar hijobda yurishini ota-bobolarimizdan o'tib kelayotgan urf-odati deya talqin etadi. Va o'zining bu masala tarafdori ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, "Al-Isloh"ning 1915 yil 24-sonida "Ochiqlik" deb nomlangan she'rida bunday yozadi:

*Ochiqlik millati islom aro fe'li qabohatdur,
Ochiqlik boisi ranju alam, bug'zu adovatdur,
Ochiqlik dinu iymon xonasin tabhiq edar bir bob,*



*Ochiq bois zillati obu ammo jabolatdur.
Ochiqlik dillari parvo aylayur turli havas birla,
Ochiqlik pardai ismatni chok aylar jinoyatdur.*

Ko'rinib turibdiki, hijob masalasiga turlicha munosabat bildirilgan. Masalan, Tavallo Xo'jamiyrov ijodida bu masalaga o'zgacha fikr bildirilgani kuzatiladi. Shoir "Al-Isloh"ning 1916-yil 6-sonida bosilgan "Hijob xususida" sarlavhali she'rida bunday yozadi:

*Oldim qalamni yozg'ali men ham hijobdan,
Cho'q-cho'q yozildi demadim aslo bu bobdan.
Cho'q yo'llar izladim kechayu tongni oturub,
Hech bir ocharga ko'rmadim oyat kitobdan...*

*Minglab Nabi rafiqasi olamdan o'rdilar,
Hech bir zamonda chiqtimu onlar niqobdan.
Ya'ni Xudoni do'sti Muhammadni ummati,
Qoldi hadis bizga u Zoti maobdin.*

Ma'lum bo'ladiki, "Al-Isloh" jurnalidagi fiqhiy bahslarda ishtirok etgan mualliflar nafaqat millatning taraqqiyparvar vakillari, balki komil va ma'rifatli musulmonlar ham edi. Undagi munozaralar xurofotu mutaassiblik, ma'rifatu taraqqiyparvarlik borasidagi bahslar edi.

Xullas, "Al-Isloh" jurnali diniy masalalarni yoritishda ham millat hayoti uchun benihoya dolzarb muammolarga e'tibor qaratdi. Shuning barobarida, jurnal bir qadar demokratik pozitsiyada turganini, qarama-qarshi, bir-biriga zid qarashlarni sahifalarida yoritganini alohida ta'kidlash kerak. "Al-Isloh" da oila, musulmonlarning o'zlariga imom – rahbar saylanishlari, taom, kiyinish, xotin-qizlar masalalariga shariatning munosabati masalasidagi bahs-munozaralar muttasil nashr etilgan. Bu munozaralar millatning o'sha zamondagi ma'rifiy darajasini ko'rsatishi barobarida, matbuotning fikr tarbiyasidagi rolini ko'rsatishi bilan ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бехбудий. // Ойна 1915, 10-сон. – В. 245.
2. Нишонова Г. Бехбудий мужтаҳид бўлганми? // Филология масалалари, 2005, №1(8). – Б. 72.
3. Аҳмадхўжа эшон. // Ойна, 1915, 15-сон. – Б. 320.
4. Ингеборг Балдауф. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Т.: Маънавият, 2001. – В. 13.
5. Холмуҳаммад Тўрақули. // Ал-Ислох, 1916, 4-сон. – Б. 98.
6. Ҳамза Муҳаммад Амин ал-Ҳамидий. // Ал-Ислох, 1916, 7 –сон. – Б. 195.
7. Бехбудий. // Ойна, 1914, 34 сон. – Б. 95.
8. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 234.
9. Аҳмадхўжа Эшон. // Ал-Ислох, 1915, 20 сон. – б. 623.
10. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик Т.: Маънавият, 2002. – Б. 211.
11. Жалолов Т. Аёл маҳқумалар. Ўзбек шоирлари.Т.: Адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 218.
12. Шамсиддин Хоиб. Очиқлик // Ал-Ислох, 1915, 24-сон. – Б. 733.

